

O'QUVCHILARDA BARQAROR TARAQQIYOT TA'LIMINI SHAKLLANTIRISHNING EKOLOGIYA VA SOG'LOM TURMUSH TARZINI TASHKIL ETISHDAGI AHAMIYATI

Toyirova M. M.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Kalit so'z: O'quvchilar, sog'lom turmush tarsi, barqaror rivojlanish.

Barqaror rivojlanish g'oyasi umumjahon ahamiyatiga ega bo'lib, buni faqat sayyoramiz miqyosidagina amalga oshirish mumkin. Jamiyat barqaror rivojlanishining aniq mezonlari insonlarga kelajakda hayot tarzini o'zgartirishga yordam beradi. Demak, kelajak avlodlarning ravnaqi yo'lida, qisqa muddatli foydadan va shaxsiy manfaatdorlikdan voz kechish lozim bo'ladi.

Hozirgi davrda Barqaror rivojlanish Kontsepsiyasi iste'molchi talablarini qondirish uchun kam miqdordagi resurslardan foydalanishga, atrof-muhitga ko'rsatilayotgan salbiy ta'sirni kamaytirishga mo'ljallangan uzluksiz jarayonni o'z ichiga oladi. Asosiy maqsad - atrof-muhitni ifloslanishini oldini olishning eng yaxshi usuli - uning paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslikdir.

Barqaror rivojlanish deganda, hozirgi avlodlar hayotiy ehtiyojlarini kelgusi avlodlar ehtiyojlarini qondirishga zarar yetkazmasdan amalga oshiriladigan rivojlanish tushuniladi. Barqaror rivojlanish mazmuni bo'yicha ekologik rivojlanish tushunchasiga juda ham yaqindir.

Barqaror tarqqiyot ta'limi taraqqiyot muammolari bo'yicha ta'limni va uning boshqa elementlarini ham qamrab olmoqda. Shuning uchun ekologik ta'limni Barqaror tarqqiyot ta'limiga kompleks yondashuv asosida yanada rivojlantirish va to'ldirish lozim.

Barqaror tarqqiyot ta'limi fanlararo yondoshuvi asosida ta'lim olish, tarbiya, o'z-o'zini rivojlantirish va namoyon etish, mustaqil va tanqidiy fikrlash, ma'nan shakllangan, ijtimoiy faol, o'z hatti-harakatlarida axloqiy va ekologik meyorlarga asoslanadigan, o'zbek xalqi qadriyatlariga mos bo'lgan, ekologik bilimga chanqoq, atrof-muhit holati haqida qayg'uradigan va yangi ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik muammolarni oldindan ko'ra olish xususiyatlarini shakllantirishga da'vat etadi[1].

Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda 2030 yilgacha mo'ljallangan kun tartibida amalga oshirilishi kerak bo'lgan chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan bo'lib, u 17 ta maqsadlar asosida iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik yo'nalishlardagi masalalarga yechim topishga qaratilgan. Bu maqsadlar o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, ulardan biri - sog'lik va farovonlikka erishishdir.

Biz har birimiz chiqindi qutisiga chiqindilarni tashlaymiz lekin ularning keyingi taqdiri haqida o'ylab ham o'tirmaymiz. Biroq, maishiy chiqindilar iz qoldiradi. Keyinchalik bu izlar tuproq va suv resurslari, havoning ifloslanishi, iqlim o'zgarishi, ekotizimlarga zarar etkazishi, biologik xilma-xillikni yo'qotish, odamlar va hayvonlarning salomatligiga salbiy ta'sir shaklida paydo bo'lishi mumkin[2].

Sog'lik va farovonlikni ta'minlashda biz odatlarimizni o'zgartirishga qodirmiz, lekin bunga qo'shimcha ravishda biz birlashishimiz kerak va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishimiz lozim. Masalan, dunyo bo'yicha 2 mlrd odam semizlikdan aziyat chekar ekan[2] va bu muammo sog'lom turmush tarziga rioya qilish orqali hal etilishi mumkin.

Sog'lom turmush tarzi, bu - har qanday kasalliklar profilaktikasi va salomatlik, kuch-quvvat garovidir. U insonning turli qirralarini rivojlantirish, muvaffaqiyatga erishish garovidir. Sog'lom turmush tarzi qoidalariga rioya etgan odam oilasi, mehnat jamoasi, umuman, jamiyatda o'z o'rniga ega bo'ladi, turli murakkab vaziyatlarni yengib o'tish, hayot qiyinchiliklari oldida o'zini yo'qotmaslikka o'rganadi[3]. Buning uchun sport bilan shug'ullanish, to'g'ri ovqatlanish, toza havoni ta'minlab, shaxsiy gigiyenaga rioya qilish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xo‘janazarov O‘.E., Mirsovurov M. va b. Ekologiya va barqaror taraqqiyot ta’limi. – T.: Navro‘z, 2014. 116 b.
2. Trash hack. Обучение действием в интересах устойчивого развития. Практическое руководство для учителей. Франция. Юнеско. 2021. 18 с. <https://aspnet.unesco.org/en-us>
3. <https://aniq.uz/uz/yangiliklar>
4. BG Boymuratovna, KS Kurbanovich, RY Shokirovich -[Supplying of Certain Vitamins for Pregnant Women in the Southern Regions of the Republic of Uzbekistan](#). Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 2021. 7609–7615.
5. BG Boymuratovna, B Shokhsanam, P Kamola
PROBLEMS OF RATIONALIZATION
OF NUTRITION OF PREGNANT WOMEN
NOVATEUR PUBLICATIONS
INTERNATIONAL JOURNAL OF INNOVATIONS IN ENGINEERING RESEARCH
AND TECHNOLOGY [IJIERT] ISSN: 2394-3696 Website: ijiert.org VOLUME 8, ISSUE
4, Apr.-2021.

